

## ALISHER NAVOIYNING “HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDAGI AYRIM MAQOLATLARDA QANOAT TUSHUNCHASI

**Norsafarova Nilufar Boybo‘ri qizi**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

**Saidova Mahzuna Farhod qizi**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada benazir shaxs Alisher Navoiyning “Xamsa” asari ilk dostoni bo‘lmish “Hayrat ul-abror” asaridagi ayrim maqolalar tahlilga tortiladi. Maqolatlardagi sabr, qanoat tushunchalari tavsiflanadi. Qanoat, sabr-toqatning hozirgi zamonamizdagi ahamiyati, boshqa ijodkorlar asarlarida ham xuddi shu tushunchaning talqini maqolalar tahlili asosida qiyoslab o‘rganiladi.

**Kalit so‘zlar:** Alisher Navoiy, maqolat, qanoat, “Hayrat ul-abror”, sabr, Jaloliddin Rumi, hadis, Luqmoni Hakim, davr, so‘z, masal, doston.

**ABSTRACT:** In this article, some articles from Alisher Navoi's work “Khamasa”, the first epic, “Hayrat ul-Abror”, are analyzed. The concepts of patience and satisfaction are described in the articles. The importance of contentment and patience in our time, the interpretation of the same concept in the works of other creators is studied by comparison based on the analysis of articles.

**Key words:** Alisher Navoi, article, contentment, “Hayrat ul-Abror”, patience, Jalaluddin Rumi, hadith, Luqmoni Hakim, era, word, parable, epic.

**АБСТРАКТНЫЙ:** В данной статье анализируются некоторые статьи из произведения Алишера Навои «Хамса», первого эпоса “Хайрат уль-Абдор”. В статьях описаны понятия терпения и удовлетворения. На основе анализа статей изучается важность довольства и терпения в наше время, трактовка этого же понятия в творчестве других творцов.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, статья, удовлетворение, “Хайрат уль-Абдор”, терпение, Джалалуддин Руми, хадис, Лукмони Хаким, эпоха, слово, притча, эпос.

Turkiy xalqlarning zabardast vakili hazrat Mir Alisher Navoiy insoniyat tarixida o‘chmas iz qoldirgan beqiyos mutafakkir. Turkiy xalqlarni bir-biriga birlashtiruvchi ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘lboshchi o‘zbek mumtoz adabiyotining asoschisi ham Mir Alisher Navoiydir. Navoiyning fazilatlarini haqida ko‘plab yozuvchilar o‘zlarining fikrlarini bildirib o‘tishgan. Jumladan, Jomiy “zamon va makonni o‘z izmiga bo‘ysundirgan zot” deya yoki Bobur Navoiyga “benazir shaxs” deya yuksak ta‘rif bergan. Navoiyning hayoti va ijodi besh asrdan beri qo‘ldan tushmay mutolaa qilinadi. Bunca sabab u o‘zining asarlarini yurt tinchligi, odob-axloq tushunchalari, kasb-hunar masalalari hamda komillikka yetaklovchi komil inson bo‘lib yetishishni o‘rgatuvchi fazilatlar boyitgan. Navoiygacha bir nechta olimlar ham “Xamsa” dostonlarini yaratishdi. Ular yaratgan dostonlar Navoiy yartagan “Xamsa” dan birmuncha farq qiladi.

Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” asari qomusiy asar bo‘lib, uning asosiy qismini tashkil etuvchi maqolat va hikoyatlarda barcha zamonlar uchun o‘ta dolzarb bo‘lgan barkamol avlod, komil inson haqidagi ulug‘ mutafakkirning teran axloqiy-ma‘naviy, ijtimoiy-falsafiy mulohazalari badiiy

ifodasini topgan. Turkiy adabiyot tarixida bunday asarlar ramziy-majoziy obrazlarning turli masalalarga oid savol-javobi (Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”) yoki asar muallifining hadislarga tayanib insonning ma'naviy kamolatga yetkazuvchi fazilatlarini hamda uni jaholat botqog‘iga chorlovchi nuqsonlarini qiyoslash (Ahmad Yugnakiy “Hibat ul-haqoyiq”) uslubi bilan vujudga kelgan bo‘lsa, Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror” dostoni kuzatilgani singari “Hayrat ul-abror” da ham ijodkorning barkamol shaxs haqidagi o‘ylari maqolatlarda yorqin in’ikosini topgan. Asardagi hikoyatlar esa maqolatlarda ilgari surilgan tayanch g‘oyalarni kitobxon shuuriga yanada teranroq ta’sir etishi, uning mavzu bilan mukammalroq tanishishiga imkon yaratadi.

“Hayrat ul-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”) janr xususiyati va kompozitsiya tuzilishi jihatidan “Xamsa” ning boshqa dostonlaridan tubdan farq qiladi. “Hayrat ul-abror” falsafiy-ta’limiy dostonidir. Bu asarida Navoiy falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta’limiy qarashlarini bayon etish, kishilarga ta’lim va o‘git berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.<sup>1</sup> [ H. Nazarova. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-Abror” dostonidagi hikoyatlarda oriflar timsoli” maqolasi.]

“Hayrat ul-abror” dostoni 20ta maqolat, 63 bobdan iborat bo‘lib, ulardagi qanoat tushunchasi yetakchilik qilgan ayrim maqolatlarga to‘xtalib o‘tsak.

Qanoat haqidagi yettinchi maqolat turli xil ma’rifiy hikoyatlarga boyligi jihatidan ham alohida ajralib turadi. Qanoatni o‘ziga kasb qilgan inson dunyodagi eng boy inson ekanligini Navoiyning fikrlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Duyonyodagi barcha moddiy boyliklar, zeb-ziynatlarini haqiqiy boylik deb hisoblamaslik kerak. Aslida haqiqiy boylik bu sabr-qanoatdir. Asardagi yettinchi maqolatda “Qanoatli va qanoatsiz ikki do‘st” haqidagi hikoya berilgan. Hikoya qilinishicha, ikki do‘st Fors yurtidan Chinga yo‘lga chiqadilar. Ulardan biri juda qanoatli bo‘lib, ikkinchisi esa xasis va qanoatsiz edi. Yo‘lda ular bir toshga duch keladilar. U toshning yarmi yuqorida, yarmi esa pastda, ya’ni yer ostida edi. Toshda mehnat qilib toshni aylantirgan inson xazina egasiga aylanishi, agar mehnat qilishni xohlamasa, sabrli bo‘lishi afzalligi xususida yozilgan edi. Sabrsiz do‘st bu yozuvni ko‘riboq xazina izlashga tushib ketadi. Sabrli do‘st esa bunga parvo ham qilmay shaharga yo‘l oladi. Shahar darvozasi kirganda esa hayratlanarli hodisa ro‘y beradi. Shaharni podshosi qazo qilganligi sababli birinchi bo‘lib kirgan inson mamlakat podshohi bo‘lishi haqida shahar aholisi kelishib olishgandi. Shu tariqa qanoatli do‘st o‘zining sabr-toqati matijasida shahar podshosiga aylanadi. Xazina izlayotgan do‘st esa toshni mashaqqat chekib ag‘darib bo‘lgach, qanoatsiz inson ta’ma ilinjida xor-zor bo‘lishini tushinib yetadi. Tosh tagidan faqatgina “Xomta’ma bu dunyoda alam chekadi” degan hikmatni o‘qiydi.

Shu bilan birga Navoiy shunday bir ta’sirli qit’a yozadi:

Kunji qanoat archi erur saltanat valek

Eldin ta’mani uzgali mardonaliq kerak.

Nasriy bayon: Garchi qanoat kunji saltanat bo‘lsa-da, lekin eldan ta’mani uzmoq uchun kishiga mardonalik kerak!

Qanoat tushunchasi hayotimiz davomida juda ko‘p, deyarli barcha vaziyatlarda kerak bo‘ladi. Hattoki oddiy kundalik yumushimizda, bozorlarda ham. Kaykovus bobomiz esa “Qobusnoma” kitobida: “Ey, o‘g‘lim, bozorda narsa sotmoqchi bo‘lsang, oz foydaga qanoat qil, xaridorlarni o‘zingdan uzoqlashtirma, molingning narxini oshirma”,- deganlar. Bu borada ham qanoat qilishlik insonni komillik sari yetaklaydi, oz vijdoni oldida javobgarligini ham osonlashtiradi.

<sup>1</sup> H. Nazarova. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-Abror” dostonidagi hikoyatlarda oriflar timsoli” maqolasi.

Bu tushuncha talqini haqida boshqa yozuvchilar ham o‘z asarlarida to‘xtalib o‘tishadi. Luqmoni Hakim ham bu haqida ko‘plab fikrlar keltirib o‘tgan. Chunki qanoat insonga har qanday holatda, har qanday paytda kerak. Aziz farzand! Qanoatli bo‘lsang, dunyoda sendan boy odam bo‘lmaydi.<sup>2</sup> [565 Luqmoni Hakim o‘g‘itlari va aforizmlar. Tarjimon va nashrga tayyorlovchilar Abdumurod Tilavov, Muhammadayub Sobitaliev. - T.: “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti, 2017 -128 b].

Sabr qilkim, sabr keltirgay najot,

Sabr sergaklikka chun qo‘l-u qanot.

O‘zni tiykim, ko‘p zaharli ul giyoh,

O‘zni tiymoqlikda nuri anbiyo.

El ufursa, ko‘kka uchgaydir xazon,

El esib, tog‘ni qo‘porgaydir qachon?

Har nafas shayton erur qarshingda shay,

Ey birodar, qochma mendan, kel, degay<sup>3</sup> [Mavlono Jaloliddin Rumi. Hikmatlar. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti – 2007]. Rumiyning ushbu hikmatini o‘qir ekanmiz, sabr orqali inson najot topishini, qanoat orqali inson shaytonning har qanday firib ishlaridan tiyilishini ko‘rishimiz mumkin. Haqiqatan ham, inson sabr-qanoat orqali makr-hiyladan saqlanadi, Allohga yuzlanib, shaytondan yuz buradi. Kaykovus, Navoiy, Rumi va Luqmoni Hakimlar bu narsaga juda ko‘p to‘xtalgan. Demak, qanoat insonga har qanday vaziyatda, har qanday holatda kerakdir.

Sabr Sirot ko‘prigiga o‘xshaydi, jannat narigi tomonda. Har go‘zalning xunuk enagasi yoxud otaligi bor. Ulardan qo‘rqsang visolga imkon yo‘q. Ey ozgina narsadan ranjiguvchi nozik ko‘ngilli, sen sabrning zavqini qayerdan ham bilar eding?<sup>4</sup> [Rumi, Jaloliddin. Qalb ko‘zingni och... Mavlono Rumiyan hikmatli so‘zlar. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi Sabohat Bozorova. T.: “Sanostandart” nashriyoti, 2011. 160 bet]

Rumi bu satrlar orqali sabr-qanoatni, xuddiki, Sirot ko‘prigiga uning narigi tomonini esa jannatga qiyos etadi. Darhaqiqat, qanoatli inson hayoti davomida o‘z sabri ila yuksak natijalarga erishadi.

“Hayrat ul-abror” dostonida kun tartibiga qo‘yilgan masalalar bevosita “Xamsa” ning keyingi dostonlarida ham davom etadi. Xususan, komil insonga xos adab, qanoat, karam va saxovat, futuvat, rostgo‘ylik, vafo kabi xislatlar bilan bog‘liq masalalar “Farhod va Shirin” dostoni, “Sab‘ayi sayyor” tarkibidagi hikoyatlar, “Saddi Iskandariy” doatonlarida yangicha talqin topganligini ko‘ramiz.<sup>5</sup> [Alisher Navoiy “Xamsa” [Matn] doston/Hayrat ul-abror. – Toshkent: “Tamaddun”, 2021. 392 b.]

<sup>2</sup> 565 Luqmoni Hakim o‘g‘itlari va aforizmlar. Tarjimon va nashrga tayyorlovchilar Abdumurod Tilavov, Muhammadayub Sobitaliev. - T.: “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti, 2017 -128 b.

<sup>3</sup> Mavlono Jaloliddin Rumi. Hikmatlar. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti – 2007.

<sup>4</sup> Mavlono Jaloliddin Rumi. Hikmatlar. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti – 2007.

<sup>5</sup> Alisher Navoiy “Xamsa” [Matn] doston/Hayrat ul-abror. – Toshkent: “Tamaddun”, 2021. 392 b.

Kim qanoatni hujjat deb bilsa, yaxshi-yomonga mujtojligi bo‘lmaydi. Kimki qanoat sari yo‘l topa olsa, bu yo‘l bilan shoh ham bo‘la oladi. Mol-u dunyo bilan o‘zingni boshqalardan yuqori qo‘yma, qanoat mulki bilan o‘zingni mag‘rur tut.<sup>6</sup> [Alisher Navoiy. “Xamsa”. “Yangi asr avlodi”, 2018. 42-bet]. Bulardan ko‘rinib turganidek, inson faqatgina qanoati, sabri bilan boshqalardan ustun bo‘lishi, o‘zida komil inson obrazini shakllantira oladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy “Xamsa” [Matn] doston/Hayrat ul-abror. – Toshkent: “Tamaddun”, 2021. 392 b.
2. Alisher Navoiy. “Xamsa”. “Yangi asr avlodi”, 2018. 42-bet.
3. H. Nazarova. Alisher Navoiyning “Hayrat ul-Abror” dostonidagi hikoyatlarda oriflar timsoli” maqolasi.
4. Luqmoni Hakim o‘g‘itlari va aforizmlar. Tarjimon va nashrga tayyorlovchilar Abdumurod Tilavov, Muhammadayub Sobitaliev. - T.: “Adabiyot uchqunlari” nashriyoti, 2017 -128 b.
5. Rumi, Jaloliddin. Qalb ko‘zingni och... Mavlono Rumiyan hikmatli so‘zlar. Tarjimon va nashrga tayyorlovchi Sabohat Bozorova. T.: “Sanostandart” nashriyoti, 2011. 160 bet.
6. Mavlono Jaloliddin Rumi. Hikmatlar. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti – 2007.
7. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi
8. hikmatlar.uz

<sup>6</sup> Alisher Navoiy. “Xamsa”. “Yangi asr avlodi”, 2018. 42-bet.